



## TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA MA'RUZA USULIDAN FOYDALANISH

*Ne'matova Solihabonu Zokirjon qizi, Qo`qon DPI 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnologiya fani darslarida ma'ruza usulidan foydalanish o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim va ko'nikmalarining ahamiyati yoritib berilgan.

**Tayanch so`zlar:** mehnatning mazmuni, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalar, didaktik va tarqatiladigan materiallar

O'quv materialini monologik tarzda uzoq vaqt bayon etish usuliga ma'ruza deyiladi. Maktab sharoitida ma'ruza kam qo'llaniladi. Oliy o'quv yurtlarida esa ta'limning asosiy shakli ma'ruza hisoblanadi. Biroq maktab sharoitida ham ma'ruzadan unumli foydalanish mumkin. Ma'ruza tayyorlash ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ish, ayniqsa o'quvchilar uchun. Tadqiqotchi S.I.Arhangelskiyning ta'kidlashicha, ma'ruza o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali o'quvchilar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir.

Ma'ruza vaqtida ham, har turli amaliy mashg'ulotlarda ham, asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishini rivojlantirish, bilim va malakasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruza – darslik, o'quv qo'llanmalari va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'quvchi yoki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha shaxsiy, ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim. Binobarin ma'ruzaga vaqtinchalik deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borish, qayta ishlab to'ldirish va mukammallashtirish lozim.

Texnologiya darslarida o'quvchilar tayyorlaydigan ma'ruzalar odatda turli xil tadbirlarni o'tkazishda qo'llaniladi. Bunda har bir o'quvchi ma'ruza tayyorlashda ushbu mavzuga taalluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qilishi kerak. So'ngra har bir sohaning darslik va qo'llanmalar, monografiya va ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar materiallari, tarixiy yozma yodgorliklar va badiiy asarlar, radio va televiedenie, Internet kabi aniq materiallar manbalaridan foydalaniadi.

Ma'ruzada hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlar muayyan miqdori bayon qilinadi;



- fan va tadqiqotlar metodologiyasi tanishtiriladi;
- o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi o'zaro aloqalar ko'rsatiladi.

O'quvchilarga o'qiladigan ma'ruzalarning yo'nalishi va ularni qabul qilib olishi turlicha bo'ladi. Bu o'quvchilarning dastlabki umumiy bilimlariga, ya'ni oldingi sinflarda egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga, ularga ta'lim bergen o'qituvchilarning mahoratiga bog'liqdir.

Ma'ruzada bayon qilingan materiallar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishi, avvalo qiziqarli, hayotga bog'liq, aniq va ishonchli dalillar bilan boyitilgan bo'lib, u zamonaviy ma'ruzaga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi lozim. Ma'ruza o'qish turli odatiy ko'rgazmali qurollar; nazorat varaqalari, sxemalari, jadvallar, modellar, xaritalar, videofilmlar, slaydlar, roliklar, multimedia vositalari, elektron darsliklar foydalanilgan holda olib boriladi. Bunday shakllar qo'llanilganda o'quvchilar tez charchamaydi va ularning faolligi saqlanadi.

Ma'ruza o'qish mobaynida o'quvchilarga mavjud materialarni yetkazish bilan birga, ularga ba'zi vazifalarni berib, kutubxona, laboratoriya va arxivlarda ishslash uchun yo'llanma berishi ham kerak.

Ma'ruzaning didaktik maqsadi, o'qitish jarayonidagi o'rni, axborotlarni bayon qilish metodlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Didaktik maqsadiga (yo'nalganligiga) ko'ra kirish, tematik va umumiy – yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

Kirish (muqaddima) ma'ruza o'rganilayotgan mavzuning ahamiyati va o'rnini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Bunday ma'ruzaning muhim xususiyati shundaki, bunda o'rganilayotgan asosiy masalaning u yoki bu tomonlarigagina to'xtalinadi, bu masalalar keyinchalik albatta detalma-detall yoritib beriladi. Tematik ma'ruzalar ayniqsa keng tarqalgan. Bunday ma'ruza u yoki bu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda faktlar, tahlillar, xulosalar mazmuni bayon qilinadi va aniq ilmiy qoidalar isbotlanadi.

Umumiy – yakuniy ma'ruza avval o'rganilgan materialarni qaytadan umumlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Uning mazmuni bayon qilingan mazmunga o'xshamaydi, balki o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarni yuksak abstraksiya (mavhumlash) bosqichida tizimga tushiriladi. Bunday ma'ruzalar o'quvchilar bilimini chuqurlashishida va o'quv fani metodologiyasini yaxshi tasavvur qilishda alohida ahamiyatga molik bo'ladi.

**Ma'ruzani tinglash va qayd qilish.** O'quvchilar faolligini oshirishda ma'ruza tinglash va qayd qilib borish muhim omillardan biri hisoblanadi. Ma'ruzani tinglash, qayd qilish jarayonida ma'ruza manbalari varaqning bir tarafiga, ikkinchi tarafiga



joy qoldirilgan holda yoziladi. Ikkinchi tarafiga esa o‘quvchi tomonidan chiqarilgan xulosalar, mulohazalar, ularda paydo bo‘lgan savollar, savollarga javob variantlari, faktlar va har xil belgilarni qo‘yish tavsiya qilinadi. Bu maqsadda ba’zan keng hoshiyalar qoldiriladi. O‘quvchilar ma’ruza davomida to‘liq va batafsil yozishlari shart emas. O‘z navbatida ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘quv kitoblarida berilgandan farq qiluvchi asosiy holatlarni – xulosa, kriteriyalar, aksioma, qoida, postulat, paradoks, paradigma, konsepsiya, holat va hokazolarni yozdirib borishadi. Ilk ma’ruzalar davomida ataylab bo‘sh qoldirilgan joy – hoshiyalar qiziqish uyg‘otgan savollarni ularga javob variantlarini yozib olish, o‘ylayotgan fikrlarni izoh etish, o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan bo‘lgan suhbat va dialoglar, mulohazalar maydoniga aylanishi kerak. Ma’ruzaning boshlanishidanoq nazorat-tekshiruv savollari beriladi. Savolga javobni biror o‘quvchi ma’ruza tarzda bayon etadi. Ushbu javobni qolgan o‘quvchilar yozib olishadi. Hamma o‘qituvchi yangi mavzuning kirish qismini oldingi mavzu bilan bog‘lovchi savollardan foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak. Bunda jumladan: “O‘tilgan mavzu yuzasidan qanday xulosalar oldingiz?”, “Qaysi faktlar mavzuni yetarli yorita oladi?” va shu kabi savollardan foydalanish mumkin. Bu vaqtida berilgan fikrlarni o‘quvchilar varaq hoshiyalariga yozib borishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi har bir darsda ma’lum bir ishni yoki uning elementini amlga oshirish borishi, o‘quvchilarni shunga o‘rgatishi zarur.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 114-119.
2. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan, and Parmankulova Orastakhon Sharifjon. "Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.2 (2023): 77-81.
3. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "MAXSUS TA’LIMGA EHTIYOJI BO’LGAN BOLALAR UCHUN TA’LIMNING INTEGRATSIYALASHUVI." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences.* Vol. 2. No. 4. 2023.
4. Sobirovna, U. M. "O’QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA FANINI O’ZLASHTIRISHGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH." *Ustozlar uchun* 16.1 (2023): 392-399.



5. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "Technology As a Factor of Educational Education In Special Schools." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.1 (2023): 4-7.
6. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS OF SPECIAL BOARDING SCHOOLS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 12.10 (2023): 62-67.
7. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATION YONDASHUV." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities.* Vol. 2. No. 4. 2023.
8. Усмонова, Мухлисахон. "Imkoniyati cheklangan bolalarni o 'qitishda texnologiya fanining dolzarbliji." *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире* 1.4 (2022).
9. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "TEACHING OF TECHNOLOGY IN SPECIAL BOARDING SCHOOLS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 12.10 (2023): 48-54.
10. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "PROVIDING INFORMATION ABOUT TEXTILES AND ITS HISTORY IN TECHNOLOGY CLASSES." *World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences* 1.2 (2024): 28-32.
11. Xayrullayeva, V. X., and M. S. Usmonova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARGA PEDAGOGIK BILIM BERISH TIZIMINING AHAMIYATI." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
12. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "INKLYUZIV TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI." *ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА MAXCUS ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ* Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети Андижон машинасозлик институти: 213.
13. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 106-113.
14. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS." (2022).



15. Sobirovna, U. M., and T. Irodaxon. "TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI." *PEDAGOGS jurnali* 21.1 (2022): 41-44.
16. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH." *World scientific research journal* 9.1 (2022): 220-224.
17. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "Improving the educational system for children with disabilities." *The Peerian Journal* 4 (2022): 20-22.
18. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS." (2022).
19. SOBIROVNA, UM. "Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education." (2021).
20. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS." (2022).
21. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 106-113.
22. Gulomovna, Ibragimova Maryamkhon, and Usanova Mukhlisakhon Sobirovna. "IMPROVING THE FIELD OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE SPECIALTY OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).